

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

*Qo‘lyozma huquqida
UDK: 351:009.13*

TO‘RAYEVA NAFISA ODILJONOVNA

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari
nomzodi, dotsent N.X.Bekmurodov**

Toshkent-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar.....	13
1.2. Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning normativ-huquqiy asoslari hamda tashkiliy- iqtisodiy jihatlari.....	25
1.3. Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	35
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	45
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	47
2.1. Kichik biznes subyektlari faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq muammolar va ularni yechish yo'llari.....	47
2.2. Kichik biznes subyektlari faoliyati rivojlanishining joriy holati tahlili va unda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari.....	68
2.3. Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlari.....	89
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	107
III BOB. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	109
3.1. Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularni yechish yo'llari.....	109
3.2. Mamlakatimiz kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari....	125
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	133
XULOSA.....	134
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	143
ILOVALAR.....	149

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, masofaviy xizmat ko'rsatish va onlayn savdolar hajmining o'sishi, mijozlar uchun mazkur xizmatlardan yer yuzini istalgan nuqtasidan erkin foydalanish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini samarali yo'lga qo'yish imkoniyatini yaratmoqda. Bugungi kunda "5,19 milliard kishi Internetdan foydalanmoqda, bu dunyo aholisining 64,5 foiziga tengdir. Global miqyosda internet foydalanuvchilari soni yiliga 2,1 foizga o'sib bormoqda, shuningdek, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida yildan-yilga o'sish ancha yuqori. O'rtacha global Internet foydalanuvchisi har kuni 6 soat 40 daqiqani onlayn rejimda o'tkazmoqda"¹. Shu boisdan kichik biznes subyektlari o'z faoliyatlarini raqamli transformatsiya qilishi talab etiladi va mijozlar talabi hamda raqobatchilar bilan teng bo'lish zaruratini tug'diradi.

Jahon iqtisodiyotining raqamlashuvi jarayonlari kuchayib borishi sharoitida kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlarini takomillashtirishga oid qator izlanishlar olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishda kichik biznes subyektlarining imkoniyatlari, mintaqaviy va global raqamli ta'minot zanjirlarida ishtirok etishlarini jadallashtirishi, har bir raqamli texnologiyaning samaradorligini tahlil qilish, iqtisodiyotni raqamlashtirish hamda kichik biznes subyektlari faoliyatida CRM (Customer Relationship Management), ERP (Enterprise Resource Planning), MES (Manufacturing Execution System), PLM (Product Life-cycle Management), MDM (Master Data Management), ERM (Enterprise Risk Management) kabi raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq masalalar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilib "raqamli texnologiyalar" tizimini tubdan yangicha turlarini ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Davlat dasturida: "... kichik va o'rta biznes

¹ <https://datareportal.com/global-digital-overview#>: DIGITAL AROUND THE WORLD.

korxonalari o'rtasida bevosita iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish hamda yagona elektron bazani yaratish va uning qo'shimcha modullarini ishlab chiqish bo'yicha biznes jarayonlarni o'rganish, texnik topshiriqlarni ishlab chiqish..."² kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida "...IT-park asosida ilg'or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun "aqli yechimlar"ni ishlab chiqishni rag'batlantirish va biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Biznes-navigator" elektron portalini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash va ishlash mexanizmini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'p jihatdan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 3-iyuldagi PQ–3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 17-fevraldagi PQ–4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.